

# O'QUVCHILARNING MILLIY HUNARMANDCHILIK BO'YICHA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

*Umarov Rahim Tojiyevich, Tog'oev Xo'jamberdi, Yusupov Kirmon Yassinovich*

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchilari, Jizzax sh.,*

*O'zbekiston*

*e-mail:rahim@jspi.uz*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o'quvchilarining milliy hunarmandchilik bo'yicha ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ustida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: Milliy hunarmandchilik, ijodkorlik, qiziqish, moyil, qobiliyat, yaratuvchanlik, masalalar.*

\*\*\*

*Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития творческих способностей учащихся в народных промыслах.*

*Ключевые слова: Народное мастерство, творчество, интерес, склонность, способность, творчество, проблемы.*

\*\*\*

*Annotation: This article discusses the development of students' creative skills in national crafts.*

*Keywords: National craftsmanship, creativity, interest, inclination, ability, creativity, issues.*

Zamonaviy milliy hunarmandchilik taraqqiyoti— o'sib kelayotgan osh avlodni tarbiyalashdagi maqsadi, vazifasi va mazmunini bevosita qamrab oladigan ijodkorlik faoliyati bilan tavsiflanadi. Buni fan, texnika va ishlab chiqarishdagi o'zgarishlarning uyg'unlashib ketishi natijasida fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanib ketishi, mehnat turlari va mazmunining o'zgarishi bilan bog'liq. Unda yaratuvchan ijodkorlikning ahamiyati oshib ketganligi bilan asoslash o'rinli. Bu esa, yoshlarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Maqolada maktab o'quvchilarining milliy hunarmandchilik bo'yicha ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ustida to'xtalib o'tiladi.

Ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uzoq va murakkab jarayon bo'lgani uchun bu yo'nalishdagi ishlarga har bir fan o'qituvchisi o'z faoliyatining birinchi kunidanoq katta mas'uliyat bilan qarashi lozim bo'ladi. Milliy hunarmandchilikda o'quvchilar yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish o'ziga asosiy uchta turdagi ijodkorlik masalasini qamrab oladi.

1. Hunarmandchilikda konstruktsiya uyg'unligi masalalari.

Bu masala: a) buyumning mustahkamligi, turg'unligi va ishonchliligini oshirishni; b) zararli ta'sir yoki hodisani bartaraf qilish usulini; v) buyumni tayyorlash bilan bog'liq uning shakli eng muvofiq bo'lishini, ularni mustahkamlash,

materiallarni to'g'ri tanlash va zarur bo'lganda boshqasiga almashtirish kabi ishlarni to'g'ri aniqlashni; g) buyumni ishlatishga qulay, estetik yuqori va yengil bo'lishi uchun o'zgartirishlar kiritishlarni nazarda tutadi.

## 2. Texnologik masalalar.

Bu masala: a) belgilab olish va nazorat qilishning eng muvofiq usullarini tanlashni; b) qiyin operatsiyalarni bajarishni yengillashtirishni, ortiqcha zo'riqish, vaqt va materialni tejab ishlatishga imkon beruvchi texnologiyalarni tanlashni; v) o'zining toliqmasdan ishlashini ta'minlovchi texnologiyalarni tanlashni; g) buyumni tanlash sifatini yaxshilashni ta'minlovchi operatsiyalar bajarish texnologiyalarini tanlashlarni ko'zda tutadi.

## 3. Tashkiliy masalalar.

Bu masalalar: a) mehnatni muvofiq tashkil qilishni; b) ish joyini muvofiq rejalashtirishni; v) qurol va moslamalardan texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda foydalanishni; g) ishni bajarish usullarini takomillashtirishlarni nazarda tutadi.

Mazkur so'z yuritilgan o'quvchilar yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari o'z navbatida ularni amalga oshirishning o'ziga xos rejasini ishlab chiqishni talab qiladi. Tajribalarning ko'rsatishicha ishni to'g'ri rejalashtirishda quyidagi omillarni e'tiborga olish lozim bo'ladi:

1. Zarur moddiy-texnik baza bilan ta'minlash (ish joyi, kerakli asbob-uskunalar, ko'rgazmali vositalar).

2. O'quvchilarning qiziqishi, moyilligi va qobiliyatiga ko'ra to'garaklarga tanlab olish;

3. To'garakda mashg'ulot o'tkazishning shakllari va usullarini muvofiq tashkil qilish (guruhiy, zvenoli, individual, so'zlab berish, bayon qilish, namoyish qilish, texnik masala echish, ijodkorlik o'yinlari, trening, izlanish strategiyasi va hokazo);

4. Ko'rgazma, ko'rik-tanlovlarni tashkil qilish va yakun yasash.

Barcha so'z yuritilgan ijodkorlik ishlari masalalari echimi va ularni rejalashtirishlar o'z navbatida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlarini o'zida mujassamlaydi. Ushbu tashkiliy pedagogik jihatlar doirasida o'quvchilar har xil ob'ektlarda faoliyat ko'rsatadilar. Ammo, ular uchun har xil bo'lgan texnik ijodkorlik ishlari mazmuni va bajarilishi ketma-ketligi esa taxminan bir xildagi bosqichlarni taqozo etadi, bunga:

1. Topshiriq (ishning maqsadiga qo'yilgan talabni oydinlashtiradi);

2. Muammoni qo'yish;

3. Taklif qilinayotgan g'oya farazni asoslash. Uni tekshirib ko'rish bo'yicha taxminiy tajribalar o'tkazish;

4. Taklif qilingan variantlarni muhokama qilish va eng muvofiq'ini tanlash, uning prinsipial chizmasini ishlab chiqish;

5. Buyum, asboblarni tayyorlash;

6. Sinab ko‘rish va muhokamadan o‘tkazish;
7. Nuqsonlarni bartaraf qilish va tayyorlash;
8. Undan amalda foydalanishga tatbiq etish;
9. Hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishlar kiradi.

Bu jarayon faoliyatida o‘quvchilar o‘z topshirig‘ini ishlab chiqish va bajarishda amaliy yangilik tavsifga ega bo‘lishiga alohida e‘tiborni qara tilishi muxim hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilganlarga asosan o‘quvchilar yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari bosh yo‘nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- zamonaviy milliy hunarmandchilikka oid tamoyillar haqidagi bilimlar bilan o‘quvchilarni qurollantirish va shu asosda fikrlashini kengaytirish;
- o‘quvchilarda bilimlarini milliy hunarmandchilikka oid yaratuvchanlik masalalarini hal etish uchun qo‘llash qobiliyatini bilim hamda fikriy-tafakkurini rivojlantirish;
- eng ko‘p tarqalgan ijodkorlik masalalarini echish usul va tamoyillarining mohiyatini o‘quvchilarda hosil qilish;
- jamiyatga xos shaxsiy ma‘naviy sifatlarni shakllantirish, tashabbuskorlik, o‘z ishiga ishonchlilik sinchkovlik ruhida qarash va tanqidiy munosabatda yondoshish.

Shunday qilib, yuqoridagilardan quyidagicha xulosa qilish mumkin o‘quvchilarning yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning yuqorida bayon qilingan masala, reja va usullarini o‘quvchilarning o‘ziga xosliklariga, ulardagi fikriy-tafakkur doirasi rivojlanganligi darajasiga muvofiq keladiganini tanlash, o‘quvchilar yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishni yanada yuqoriroq bosqichga ko‘tarish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmetova A.S., Ismatullaeva M.Z. Xalq hunarmandchiligi.-T.: «Iqtisod-Moliya» 2008.-292 b.
2. Tagaev X., Tolipov U. K. Pedagogicheskie osnovy sovershenstvovaniya tvorcheskoy lichnosti. Metodicheskoe posobie. Institut sredstv obucheniya Rossiyskaya akademiya obrazovaniya. – 1993.
3. R. T. Umarov va boshqalar. “Texnil ijodkorlik va dizayn” fanidan laboratoiya –amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishga oid uslubiy ko‘rsatma. Sangzor-2005, 44 b.